

XARAKATLI O'YINLAR ORKALI BOLALARNI YENGIL ATLETIKA SPORT TO'GARAGIGA JALB QILISH VA UNI RIVOJLANTIRISH

B. Satkulov – FJMS kafedrası o'qituvchisi,

Annotatsiya: Mashk jarayonida uchta asosiy o'kitish metodlari o'kituvchi-murabbiy bolalarga nimaga va kanday kilib, bilimlarni ongli ravishda xamda to'liq o'rgatishni, amaliy kunikma va malakalar xosil kilishga kanday yullar va usullar bilan erishishlarini yaxshi tushunishlari kerak. Agar bolalarga yengil atletika mashqlari kattalarni mashqlari singari mashg'ulot davomida doimiy olib borilaversa, ularda bu sportga nisbatan qiziqishi susayib boradi va biz xoxlaganchalik natija bermasligi mumkin.

Kalit suzlar: iqtidorli, ommaviy, yangi-yangi, yoshlar, shon shuxrati, barkamol, o'yinlar, og'ir o'yinlar.

Abstract: In the course of the training, the teacher-coach should have a good understanding of the three main teaching methods, what and how to teach the children consciously and fully, and how to achieve the acquisition of practical skills and skills. If children's athletics exercises are carried out continuously during training, like adult exercises, they will lose interest in this sport and may not get the results we want.

Keywords: talent, mass, brand new, youth, glory, mature, games, heavy games.

Аннотация: В ходе обучения педагог-тренер должен хорошо понимать три основных метода обучения, чему и как учить детей осознанно и полно, и как добиться приобретения практических навыков и умений. Если детские легкоатлетические упражнения будут проводиться постоянно во время тренировок, как упражнения взрослых, они потеряют интерес к этому виду спорта и могут не получить желаемых результатов.

Ключевые слова: талант, масса, новенький, молодость, слава, зрелость, игры, тяжелые игры.

Barcha mutaxassislarga ma'lumki bolalar juda xam qiziqqon, o'yinqaroq bo'ladilar.

Bolalarda kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik sifatleri rivojlanib, yengil atletika turlarini texnikalari asta sekinlik bilan namoyon bo'la boshlaydi. Murabbiy o'yinlarni o'rgatish jarayonida yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishi va ularning doimo amalga oshirilishga erishishi lozim. Bizni fikrimizcha yosh murabbiylar harakatli va milliy o'zbek o'yinlaridan keng foydalanganda o'z-o'zidan iqtidorli yengil atletikachilar yetishib chiqadi va qaysi bir turiga qiziqishini uyg'onishi, xamda shakillantirishga olib keladi.

Mamlakatimizda yosh avlodni sport bilan shug'ullanishi, sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy kamolga intilish, Vatanga mehr-muhabbat, o'z yurti bilan g'ururlanish ruhida tarbiyalash ishlari asosiy yo'nalish sifatida belgilandi.

O'zbekistonda bolalar ommaviy sportini rivojlantirishni ta'minlash maqsadida, joylarda sport muassasalarining barpo etilishi, yangi-yangi sport turlaridan to'garaklar faoliyatining yo'lga qo'yilishi, ularning tegishli jihozlar va malakali sport murabbiylari bilan ta'minlanishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanayotgan bolalar va o'smirlar soni yildan-yilga ortib borishiga asos bo'lmoqda. Xozirgi vaqtga kelib mamlakatimizning barcha joylarida malakali

mutaxassislar olimpiya o‘yinlariga kiritilgan sport turlarini rivojlantirib va olimpiya va jaxon chepionlarini yetishtirib kelmoqdalar.

Kelajagimiz yoshlar qo‘lida ekan biz mutaxassislar zimmasiga ma’suliyat yuklaydi, vatanimizni shon shuxratini dunyoga tanitish va bayrog‘imizni yuqori cho‘qqilarda xilpirab turishi xamda madxiyamizni baralla ovozda yangrashi uchun tinmay mexnat qilishimiz xamda iqtidorli sportchilarni yetkazib berishimiz kerak bo‘ladi. Bizga ma’lumki yengil atletika sport turlari ichida o‘z o‘rniga va mavqeyiga ega, qolaversa barcha sport turlarining malikasi hisoblanadi, bu sport turini rivojlantirish esa ozmuncha mashshaqatni talab etadi. Bolalar bilan o‘tadigan yengil atletika mashg‘ulotlari kattalarnikidan ancha farqli bo‘lib, bolalarni yengil atletika mashqlariga qiziqтира olish, xamda shu sport turiga muhabbat uyg‘otishga o‘rgatish zarur. Mashk jarayonida uchta asosiy o‘kitish metodlari o‘kituvchi-murabbiy bolalarga nimaga va kanday kilib, bilimlarni ongli ravishda xamda to‘liq o‘rgatishni, amaliy kunikma va malakalar xosil kilishga kanday yullar va usullar bilan erishishlarini yaxshi tushunishlari kerak. Agar bolalarga yengil atletika mashqlari kattalarni mashqlari singari mashg‘ulot davomida doimiy olib borilaversa, ularda bu sportga nisbatan qiziqishi susayib boradi va biz xoxlaganchalik natija bermasligi mumkin.

Barcha mutaxassislarga ma’lumki bolalar juda xam qiziqqon, o‘yinqaroq bo‘ladilar. Shuning uchun xam ular bilan yengil atletika mashqlarini bajartirishda ya’ni (mashg‘ulot o‘tishda), harakatli o‘yinlardan ko‘proq foydalanish zarurdir, ana shunda biz o‘ylagan natija kelib chiqishi mumkin. Bu borada xar bir murabbiy o‘z ustida ish olib borib yangi inovatsion texnologiyalaridan unumli foydalangan holda bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan o‘yinlar hamda mashg‘ulotlar olib borishlari maqsadga muvoffiqdir. Bundan tashqari, xarkatli o‘yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo‘lishi uchungina emas, balki aqli va axloqiy jixatdan tarbiyalash uchun muxim axamiyatga ega. O‘yinlar hayotdagi to‘siqlarni yengish hamda har hil hislat va qobilyatlarni ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan jismoniy mashqlarning turli kompleksini o‘z ichiga oladi. Xarakatli o‘yinlardan yengil atletikaning barcha turlarini keng qo‘llagan xolda musobaqalar tashkil qilinadi, bu borada jaxondagi ko‘plab murabbiylar va mutahassislar shu usullar orqali bolalarda umumiy jismoniy tayyorgarliklarini rivojlantirib oladilar, xamda musobaqa davrida ularning tezlik, kuch, chaqqonlik, chidamlilik, qobilyatlari namoyon bo‘la boshlaydi va o‘z-o‘zidan yengil atletikaning turlari bo‘yicha iqtidorli bolalar ko‘zga tashlana boshlaydi.

Odatda, bolalar sevib o‘ynaydigan, ularga quvonch baxsh etadigan musobaqa elementlari ham harakatli o‘yinlarga kiradi. Xarakatli o‘yinlar, chunonchi yurish, yugurish, sakrash, irg‘itish yoki uloqtirish, tirmashib chiqish kabi mashqlar bola harakatlarini rivojlantirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Xarakatlarning takomillashishi bilan birga, jismoniy qobiliyat ham taraqqiy eta boradi, yurak va qon aylanish xamda nafas sistemasining faoliyati yaxshilanadi.

Ma’lumki, xar bir o‘yinning o‘ziga xos xususiyatlari va qiyinchiliklari bo‘ladi. To‘siq yoki qiyinchiliklarni yengish bilan bog‘liq bo‘lmagan, yaniy anncha-muncha kuch-quvvat sariflashni talab qilmaydigan o‘yinlar bolalarda qiziqish uyg‘otmaydi. Juda osson yoki, aksincha, xaddan tashqari og‘ir o‘yinlar xam qiziqarli o‘tmaydi. Shuning uchun ham murabbiy o‘yinlarni o‘rgatishda dastlab ossonlaridan boshlab, asta-sekin murakkablashtirib borish lozim. Guruxlarga bo‘linmasdan o‘ynaladigan o‘yinlar oddiy o‘yinlar xisoblanadi. Bunday o‘yinlarni o‘ynash bolalar uchun osson bo‘ladi. Guruxlarga teng bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlar sal

murakkab va juda murakkab o‘yinlarga kiradi. Bunday o‘yinlarning qoidalari boshqa o‘yinlarning qoidalariga qaraganda qiyinroq bo‘ladi.

Shu boisdan xam murabbiy xamma vaqt yengil o‘yinlardan murakkab o‘yinlarga, tanish o‘yinlardan notanish o‘yinlarga o‘tishni ko‘zda tutishi kerak. Shunda bolalarda o‘yinga qiziqishi ortadi. Yangi o‘rganiladigan o‘yinlar turiga ko‘ra tanish o‘yinlarga o‘xshash bo‘lishi kerak. Ammo bunday o‘yinlarga xali bolalarga nomalum bo‘lgan qoidalar va bazi bir xarakatlarni tushuntirib borilishi kerak.

Shunday qilib, o‘yinlar asta-sekin murakkablashib boradi bu esa bolalarda yangi xarakter ko‘nikmalarini xosil qilishga va ilgari o‘rganilgan texnika elementlarini takomillashtirishga yordam beradi. Bolalarda kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik sifatleri rivojlanib, yengil atletika turlarini texnikalari asta sekinlik bilan namoyon bo‘la boshlaydi. Murabbiy o‘yinlarni o‘rgatish jarayonida yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishi va ularning doimo amalga oshirilishga erishishi lozim. Bizni fikrimizcha yosh murabbiylar harakatli va milliy o‘zbek o‘yinlaridan keng foydalanganda o‘z-o‘zidan iqtidorli yengil atletikachilar yetishib chiqadi va qaysi bir turiga qiziqishini uyg‘onishi, xamda shakillantirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – Yengilmas kuch. T. 2008 y. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng ulug‘ saodatdir. T. 2015 y. 304 b

2. Ачиллов А.М., Акрамов Ж.А., Ганчарова О.В. Болаларнинг жисмоний сифатларини тарбиялаш. «Lider Press» nashriyoti, Тошкент. 2009.

3. Алабин В.Г., Алабин А.В., Бизин В.П. Много летняя подготовка юных спортсменов. Учебное пособие. – Харьков: Основа, 1993.

4. Gozzoli C., Malek El Hebil, Elio Locatelli, IAAF CECS Level I –II Courses.

5. Холмирзаев Э. Спорт ўйинлари ва уни ўқитиш методикаси – Тошкент, 2011.

6. Qudratov R.Q. Darslik. Yengil atletika. T. 2012 y. Matveyev L.P. Oboaya teoriya i yeye prikladnyye aspekty. L. Lan, 2008 g. 384 s.